

NODAVLAT OLIY TA'LIM FAOLIYATINI LITSENZIYALASHGA OID QONUNCHILIK HUJJATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Inoyatov B. U.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yuridik ta'minlash bo'limi bosh
yuriskonsulti, mustaqil tadqiqotchi*

Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlarning ulushi tobora ortib bormoqda. Bu sohaga oid qonunchilik hujjatlarining takomillashib borishi, nodavlat ta'lim tashkilotlariga yangi talab va shartlarning belgilanishi bilan bevosita bog'liq. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 2026-yil holatiga jami 207 ta oliy ta'lim tashkilotlarining 74 tasi (35,75%)ni nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tashkil etadi [1]. Bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasida 2025-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlarining umumiy soni taxminan 1255 tani tashkil etib, ularning 330 tasi (26,29%) nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari hisoblanadi [2].

Qozog'iston Respublikasi Milliy statistika byurosining 2024-2025 o'quv yili boshidagi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda jami 113 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda. Ularning 64 tasi (56,6%) nodavlat (xususiy), 48 ta (42,5%) davlat va 1 tasi (0,9%) xorijiy OTMLar hisoblanadi [3]. Qirg'iz Respublikasining Fan, oliy ta'lim va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, respublikada 87 ta oliy professional ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, shulardan 40 tasi davlat, 43 tasi (49,4%) nodavlat (xususiy), 4 tasi boshqa hisoblanadi [4].

Eng ko'p oliy ta'lim tashkilotlari AQSh hisobiga to'g'ri keladi. 2024-2025 yillar holatiga ko'ra, mamlakatda taxminan 4000-5300 ta akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari mavjud. Shundan, davlat 1626, nodavlat 2672 dan ortiq. Nodavlat notijorat 1687 nodavlat tijorat 985 (tijorat OTMLar soni keskin kamaymoqda) [5].

Mamlakatimizda 2019-yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmagan. 2019-yilda 20 ta, 2020-yilda 22 ta, 2021-yilda 30 ta, 2022-yilda 65 ta, 2023-yilda 69 ta, 2024-yilda 71 ta, 2025-yilda 74 ta nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan. Bugungi kunda oliy ta'lim xizmatlarining sohasida nodavlat ta'lim tashkilotlarining ulushi tobora ortib bormoqda. Bu holat nodavlat ta'lim xizmatlari sohasi jadallik bilan rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, aholining oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondira oladigan, davlat ta'lim talablari va standartlariga javob beradigan sifatli oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish bugungi ilmiy-innovatsion va iqtisodiy rivojlanish sharoitlarida juda muhim holat hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, nodavlat oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish qonunchilik hujjatlariga ko'ra, litsenziyalanadigan faoliyat hisoblanganligi sababli, mazkur faoliyat bilan shug'ullanishni maqsad qilgan yuridik shaxslar albatta tegishli litsenziyaga ega bo'lishlari lozim bo'ladi. Biz mazkur maqolada aynan nodavlat oliy ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida tashkil etilgan yuridik shaxslarni litsenziyaga ega bo'lishlari uchun belgilangan talab va shartlarni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlarini rivojlanish tendensiyalari haqida fikr yuritamiz.

Bugungi kunda nodavlat oliy ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida tashkil etilayotgan yuridik shaxslar asosan xo'jalik jamiyatlari shaklida, ya'ni mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilmoqda.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining rivojlanish jarayonlarini tahlil qilinar ekan, dastlab bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-martdagi "Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 100-son qarori (hujjat 01.04.2018-yildan kuchini yo'qotgan) qabul qilinganligiga guvoh bo'lamiz⁶. Qarorga 1-ilova bilan "Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan bo'lib, bu nafaqat nodavlat oliy ta'lim muassasalarining balki, barcha nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash tartibini belgilovchi ilk normativ-huquqiy hujjat bo'lgan. Nizomga muvofiq, litsenziyalarni berish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish masalalarini ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasining nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasi tashkil etilgan bo'lib, uning ishchi organi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hisoblangan. Nizomga ko'ra nodavlat ta'lim faoliyati uchun beriladigan litsenziya muddatli bo'lib, u 5 yil muddatga amal qilgan.

Nizom bilan nodavlat ta'lim faoliyati uchun belgilangan litsenziya talab va shartlari, hamda litsenziya olish uchun berilgan arizaga ilova qilinadigan ma'lumotlar bu sohani tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik hujjatlarda takomillashtirilib nazarda tutilgan. Jumladan, sohaga oid qonunchilikka rioya etish, ta'lim jarayonini davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etilishi, ta'lim mazmuni dunyoviy bo'lishi, urush, zo'ravonlik yoki jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi g'oyalarni targ'ib qilmasligi shart. Ta'lim tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur binolar, o'quv xonalari, moddiy-texnik baza va axborot resurslariga, o'qituvchilar esa tegishli ma'lumotga va malakaga ega bo'lishi talab etilgan.

Litsenziya olish uchun beriladigan arizaga davlat ro'yxatidan o'tganligi haqida guvoynoma, binolarga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar, sanitariya va yong'in xavfsizligi bo'yicha xulosalar, o'quv rejaları va dasturlari, ustav, pedagog kadrlar haqida ma'lumotlar ilova qilinishi talab etilgan. Arizani ko'rib chiqishning umumiy muddati 30 kun etib belgilangan. Litsenziya berilgandan keyin ham nodavlat ta'lim tashkiloti faoliyati vakolatli organ tomonidan nazorat qilingan. Bu borada litsenziyalovchi organ bir qator huquqlarga ega bo'lgan. Qonunbuzilishlar aniqlansa, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish yoki jiddiy holatlarda litsenziyaning amal qilishi to'xtatish yohud uni bekor qilishga sabab bo'ladigan holatlar yuzaga kelganda sud tartibida yoki litsenziyalovchi organning qarori bilan bekor qilinishi mumkin bo'lgan. Masalan,

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi qonunining (*O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi O'RQ-701-sonli «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan.*) 24-moddasiga ko'ra, litsenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda sud tartibida bekor qilinishi belgilangan [6]. Barcha berilgan litsenziyalar maxsus reyestrda ro'yxatga olingan va ular haqidagi ma'lumotlar ochiq holda e'lon qilinib borilgan [7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentyabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3276-son qarori nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish, ta'limning yuqori sifatini ta'minlashda davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, shuningdek, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilindi [8].

Aytish mumkinki mazkur qaror nodavlat ta'lim sohasining rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqdi, deyish mumkin. Unda nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirishning quyidagi asosiy yo'nalish va vazifalari belgilab berildi: iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim-tarbiyaning yuqori sifatini ta'minlaydigan qulay shart-sharoitlar yaratish; sog'lom raqobat muhitini shakllantirish uchun an'anaviy ta'lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta'lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish bozorini jadal rivojlantirish; ilg'or xalqaro tajribalarni inobatga olib, o'qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'lim sohasidagi samaradorlik va natijaviylikni oshirish.

Garchi qarorda barcha nodavlat ta'lim sohasini isloh qilish nazarda tutilgan bo'lsa-da, ustuvorlik Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim sohasiga berilgan deyish mumkin. Chunki qaror bilan maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim sohasida nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi shaxslarga qator imtiyozlar berilgan va qarorga berilgan sharhda tahlil etilgan muammoli vaziyatlar maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim sohasiga taalluqli ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentyabrdagi PQ-3276-son qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-martdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 241-son qarorini (*Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-dekabrda 791-sonli "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan*) qabul qilindi [9]. Maqsad nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilayotgan ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, mazkur faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish hamda nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini soddalashtirish orqali litsenziya davogarlariga qulay imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Qarorning shakli va mazmunini tahlili qilish nodavlat ta'lim xizmatlari sohasiga yangi qoidalar, talab va shartlar joriy etilganligini, tizim soddalashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2018-yil 1-apreldan 2004-yildan amalda bo'lib kelgan nodavlat ta'lim xizmatlariga litsenziya berishga vakolatli organlar soni qisqartirilib (*Vazirlar Mahkamasining nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasi faoliyati tugatilgan*), bu vakolat Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga o'tkazilgan.

Tizimdagi malakali mutaxassislarni nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalashda ekspert sifatida xulosa taqdim etish jarayoniga jalb etish va sohani raqamlashtirish belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-martdagi 241-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi (*Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli qaroriga asosan 2022-yil 1-martdan o'z kuchini yo'qotgan*) nizomda Litsenziya talablari va shartlariga quyidagi qo'shimchalar kiritilgan: Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, o'qitishning innovatsion shakllari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'lim sohasidagi samaradorlik va natijadorlikni oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning qobiliyatli va iqtidorli farzandlarini tanlov asosida umumiy o'quvchilarning 10 foizidan kam bo'lmagan miqdorda bepul o'qishga qabul qilish, bitiruvchilarga belgilangan tartibda ta'lim to'g'risida hujjat berish.

Aytish mumkinki, Vazirlar Mahkamasining 241-son qarori avvalga qarorga nisbatan modernizatsiya qilingan, keng qamrovli va sifatga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy qo'llab quvvatlashni nazarda tutuvchi hujjatdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli qarori litsenziyalash sohasida muloqo yangi davr boshlanganligini belgilab berdi. Qaror bilan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risida yagona Nizom tasdiqlandi va dastlab 28 ta faoliyat turini litsenziyalash tartibi qamrab olingan bo'lsa, kiritilgan o'zgartirishlar sababli hozirda 39 ta faoliyat turini litsenziyalash belgilangan. Bunga qadar nodavlat ta'lim xizmatlarini litsenziyalash alohida normativ hujjat bilan tartibga solingan edi.

Qabul qilingan hujjatning nomidan ham ko'rinib turibdiki, litsenziyalash jarayonlari to'liq "Litsenziya" axborot tizimi yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron shaklda amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha litsenziya talab va shartlari kengaytirilib umumiy va maxsus turlarga ajratildi. Nizomning 2-ilovasi bilan Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash pasporti tasdiqlanib, Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun litsenziya talab va shartlari umumiy va

maxsus turlarga ajratildi. Umumiy litsenziya talab va shartlari barcha ta'lim xizmatlari uchun majburiy etib belgilangan bo'lsa, maxsus shartlar har bir ta'lim turlari uchun alohida-alohida qilib belgilangan.

Nodavlat oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish maqsad qilgan yuridik shaxslar litsenziya olish uchun quyidagi **umumiy talablarga rioya etishi lozim**:

a) ta'lim-tarbiya faoliyati yuritiladigan binoga (xonalarga) mulkiy yoki boshqa ashyoviy huquqning mavjudligi (oldi-sotdi shartnomasi yoki ko'chmas mulk ijarasi shartnomasi (agar bino ijaraga olingan bo'lsa), ko'chmas mulk obyekti kadastr pasporti, ko'chmas mulk obyektiga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar), shaharsozlik norma va qoidalarida belgilangan talablarga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'siqlarsiz muhit yaratilganligi*;

b) ta'lim-tarbiya jarayonini davlat ta'lim standartlariga (davlat ta'lim talablariga), o'quv reja va dasturlariga (ta'lim dasturlariga), shuningdek, ta'lim tashkilotlari tomonidan mustaqil ishlab chiqilib, litsenziya olish paytida taqdim etilgan o'quv dasturlariga muvofiq tashkil etish*;

v) ta'limning majburiy ravishda dunyoviy xarakterda bo'lishi, ta'lim jarayonida urushni, zo'rvonlikni targ'ib qilishdan foydalanishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinligi kamsitilishiga, ta'lim oluvchilar jinsiga ko'ra ajratib o'qitilishiga (qonunchilikda ayrim o'quv fanlarni ajratib o'qitish bo'yicha belgilangan holatlar bundan mustasno), mamlakatdagi xavfsizlik va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka, jamiyatning huquqiy va ma'naviy asoslari, fuqarolar osoyishtaligiga, millatlararo va dinlararo totuvlikka raxna solinishiga, O'zbekiston Respublikasi to'g'risida noto'g'ri axborotlar tarqatilishiga hamda uning tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlari buzib ko'rsatilishiga yo'l qo'yamlik*;

g) litsenziat tomonidan nodavlat ta'lim sohasidagi faoliyati uchun litsenziya olingan kundan so'ng bir oy muddat ichida ta'lim tashkiloti, ta'lim oluvchilar va pedagog xodimlar to'g'risidagi to'g'ri, to'liq va ishonchli ma'lumotlarni ta'lim sohasida vakolatli davlat organlarining tegishli axborot tizimlariga kiritish va muntazam ravishda yangilab borish.

Bunda oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar ta'lim tashkiloti, ta'lim oluvchilar va pedagog xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'quv faoliyati boshlangandan so'ng Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining o'quv, ilmiy va ma'muriy jarayonlarni boshqaruvchi hamda ta'lim sifatini nazorat qiluvchi axborot tizimlariga (oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi — HEMIS)ga tegishlilik bo'yicha kiritish va muntazam ravishda yangilab borish*;

d) ta'lim jarayonini qonunchilik hujjatlari bilan davlat ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan kiyinish talablariga hamda ta'lim tashkilotining ichki tartib-qoidalariga va o'dob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tashkil qilish;

e) nodavlat ta'lim tashkilotiga o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilish*;

j) nodavlat ta'lim tashkilotlarining nomi, muhrlari, tamg'alari, lavhalari, e'lonlari, narxnomalari, ish qog'ozlarining matnlari va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida bo'lishi (O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida tashkil etiladigan xorijiy ta'lim tashkilotlarining, shuningdek xalqaro tashkilotlarning ta'lim muassasalari filiallari (markazlari, ta'lim kampuslari) va boshqa bo'linmalari bundan mustasno)*;

z) bitiruvchilarga belgilangan tartibda ta'lim to'g'risida hujjat berish (bundan maktabgacha ta'lim xizmatlari mustasno).

Quyidagilar oliy ta'lim xizmatlari uchun **qo'shimcha umumiy litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi**.

a) qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya qilish;

b) ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etishda tahsil oluvchilar uchun yer, bino va inshootlarda belgilangan maydonning mavjudligi*;

tashkil etilayotgan oliy ta'lim tashkilotining ta'lim jarayoniga mo'ljallangan bino va inshootlarining maydoni 5 000 m²dan kam bo'lmasligi;

v) oliy ta'lim tashkilotlarining muqobil ta'lim shakllari bo'yicha umumiy qabul kvotasi kunduzgi ta'lim shakli qabul natijasining 50 foizidan oshmasligi hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklariga talabalarni tegishli ta'lim dasturlari belgilangan tartibda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazilganidan so'ng navbatdagi (kelayotgan) o'quv yili uchun belgilangan tartibda qabul qilish*;

g) oliy ta'lim tashkilotida vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanadigan rektor maslahatchisi shtat birligi mavjudligi*;

d) qonunchilikda belgilangan muddatlarda, o'rnatilgan tartibga muvofiq davlat akkreditatsiyasidan o'tish*;

e) davlat akkreditatsiyasidan o'tish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni belgilangan muddatlarda bartaraf etish*;

j) oliy ta'lim tashkiloti dastlabki 5 yil davomida uning yillik sof foydasining kamida 80 foizini, keyingi yillarda esa kamida 50 foizini mazkur ta'lim tashkilotining asosiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirish;

z) ta'lim tashkilotlari bitiruvchilariga beriladigan diplom ma'lumotlarini Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli ma'lumotlar bazasiga kiritish*.

Oliy ta'lim xizmatlari bo'yicha maxsus litsenziya talablari va shartlari quyidagilardan iborat [10]¹¹:

T/r	Litsenziya talablari va shartlari	Bajarilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar
1.	Talabgorning dastlabki ustav fondi (ustav jamg'armasi)ga qo'yiladigan minimal talablar*:	Kamida 2 (ikki) mln AQSH dollari ekvivalentidagi mablag'lar hamda keyinchalik talabalar sonining ko'payib borishiga mutanosib ravishda ushbu ustav fondini oshirib borish.

2.	Talabgor tomonidan depozit hisobvarag'ida xazira qilinishi lozim bo'lgan mablag'ning minimal miqdori*:	350 (uch yuz ellik) ming AQSH dollari ekvivalentidagi mablag'larni tijorat banklaridagi depozitlarga xaziraga joylashtirish va uning miqdorini doimiy ta'minlab borish.
3.	O'quv va o'quv-metodik adabiyotlar hamda axborot-resurs bazasi bilan ta'minlanganligi*:	a) kamida 40 ta kompyuter texnikasi bilan jihozlangan kompyuter sinflari; b) kamida 40 ta kompyuter texnikasi, skaner va nusxa ko'chirish apparati bilan jihozlangan axborot-resurs markazi (har bir kompyuter texnikasi uchun kamida 4 m ² maydon ajratilishi lozim); v) har bir o'quv binosida maydoni 50 m ² dan kam bo'lmagan talabalar mustaqil dars qilish xonasi; g) server qurilmasi, SCORM standarti talablariga muvofiq bo'lgan ta'lim faoliyati va ta'lim jarayonlarini boshqarish elektron platformasining mavjudligi hamda ma'lumotlar bazasi xavfsizligi kafolati mavjudligi.
4.	Ta'lim oluvchilar uchun mo'ljallangan auditoriya xonalarining minimal hajmi*:	guruhda — 20 — 30 nafargacha; potokda — 40 — 90 nafargacha talaba uchun belgilangan maydon talablardan kam bo'lmashligi.
5.	Ta'lim tashkilotining hududiga qo'yiladigan talablar*:	a) devor yoki panjara bilan o'ralganligi; b) hududning kamida 30 foizi ko'kalamzorlashtirilganligi; v) tungi yoritgichlar o'rnatilganligi; g) ichimlik suv va kanalizatsiya bilan ta'minlanganligi; d) stadion (o'yin maydoni) va dam olish qismlarining mavjudligi; e) hududning xavfsizlik bo'yicha video kuzatuv kameralarining o'rnatilganligi.
6.	Ta'lim tashkilotining tashqi hududida har bir ta'lim oluvchi uchun ajratiladigan umumiy maydon o'lchami*:	texnika va muhandislik — 11,2 — 19,4 m ² ; pedagogika — 8,7 — 14,5 m ² ; farmatsevtika — 11,2 — 19,4 m ² ; iqtisodiyot — 7,9 — 13,1 m ² ; tibbiyot — 12,3 — 22,0 m ² ; qishloq xo'jaligi — 11,2 — 19,4 m ² ; zooveterinariya — 11,4 — 20,5 m ² ; madaniyat — 15,0 — 26,0 m ² ; san'at va arxitektura — 20,0 — 33,8 m ² ; boshqa yo'nalishlar bo'yicha — 8,7 — 14,5 m ² .
7.	Ta'lim tashkilotidagi xonalar hamda har bir ta'lim oluvchi yoki xodim uchun ajratiladigan maydon o'lchami*:	a) ma'muriyat uchun: rektoratdagi barcha ma'muriy-boshqaruv jarayonini amalga oshirish uchun mo'ljallangan xonalar — 1 tadan xona; buxgalteriya xonasi — 1 ta xona; inson resurslarini boshqarish bo'linmasi xonasi — 1 ta xona; b) dars mashg'ulotlari uchun: o'quv auditoriyalari — 2,2 m ² ; kompyuter zali (sinfi) — 4 m ² ; chet tili xonasi — 2,4 m ² ; umumnazariy va umumta'lim laboratoriya xonalar — 4 m ² ; texnik va maxsus laboratoriyalar — 6 m ² ; alohida kabinalarga ajratilgan fonzallar — 3 m ² ; o'quv-texnik vositalar bilan jihozlangan o'quv auditoriyalari — 2,4 m ² ; kurs loyihasi va malakaviy bitiruv ishlarini bajarish zallari — 3,6 m ² (arxitektura-qurilish va badiiy OTTlauchun — 6 m ²); sport zal (sport ta'lim yo'nalishlari hamda o'quv rejalarida sportga oid fanlari mavjud bo'lsa) — 12,0x18,0 m; 12,0x24,0 m; 15,0x24,0 m; 18,0x38,0 m va undan yuqori; o'quv binolarining umumiy quvvatiga nisbatan barcha ta'lim shakllari bo'yicha tahsil olayotgan jami talabalar soni 2 baravardan ortib ketmasligi; v) qo'shimcha xizmat ko'rsatish uchun: kutubxonaning umumiy maydoni (har bir o'quv binosida) — 200 m ² ; faollar zali; oshxona (bufet); tibbiyot xonasi; ta'lim oluvchilar turar joyi — Toshkent shahri uchun har 5 nafar ta'lim oluvchiga 1 o'rin (joy) nisbatida, boshqa hududlarda har 10 nafar ta'lim oluvchiga 1 o'rin (joy) nisbatida.

8.	Axborot texnologiyalari bilan ta'minlanganlik darajasi*:	a) ta'lim tashkilotining rasmiy veb-sahifasi mavjudligi; b) kamida 75 % kompyuter texnikalari 20 mbit/sek tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog'iga ulanganligi; v) kamida 50 % hududda Wi-Fi zonalar tashkil etilishi.
9.	O'quv auditoriyalarida ta'lim faoliyati uchun yaratilgan sharoitlarga qo'yiladigan minimal talablar*:	a) proyektor yoki o'lchami 1500x1000, 1500x2000, 2500x2000 bo'lgan elektron yoxud oddiy doska — 1 dona; b) auditoriyaning yoritilish darajasi — 400 lyuks.

Yuqorida bayon etilgan talab va shartlarni bajargan yuridik shaxslar nodavlat oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun litsenziya olishlari mumkin bo'ladi. 2025-yilga kelib nodavlat oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida sohani litsenziyalash dastlab bir bosqichda amalga oshirilgan, ya'ni tegishli litsenziyani olish bilan faoliyatni boshlab yuborish nazarda tutilgan bo'lsa, 2025 yil 1-iyuldan mazkur jarayon ikki bosqichda amalga oshirilishi belgilandi. Bunda nodavlat oliy ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lishning o'zi yetarli bo'lmay, tegishli maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tish talabi ham joriy etildi. Shuningdek, bu vakolatlar turli davlat idoralari o'rtasida taqsimlanib, ularning har biri bir biridan mustaqil tarzda o'z vakolatlari doirasida harakat qilishi belgilandi. Mazkur tartibga rioya etmagan yuridik shaxslarga nodavlat oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish uchun berilgan litsenziya bekor qilinishiga sabab bo'ladi.

Mazkur tartiblar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-76-son Farmoni bilan joriy etildi. Farmonning 6-bandiga ko'ra, 2025-yil 1-iyuldan boshlab yangi tashkil etiladigan ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqichda faoliyatni boshlash uchun o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari o'rnatilgan tartibda litsenziyalanadi, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlari xabardor qilish tartibida tashkil etiladi;

ikkinchi bosqichda ta'lim tashkilotlarining kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladigan ta'lim dasturlari (kasblar, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar) maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi. Bunda:

maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tmagan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim oluvchilarni o'qishga qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi;

maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tmasdan qabul jarayonini amalga oshirish litsenziya talab va shartlarini qo'pol ravishda buzish deb baholanadi va ta'lim tashkilotiga berilgan litsenziyaning bekor qilinishiga (faoliyatining to'xtatilishiga) asos bo'ladi¹².

Nodavlat oliy ta'lim faoliyatini litsenziyalash vakolati O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga berilgan bo'lsa, ta'lim tashkilotlarining kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladigan ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi zimmasiga yuklatilgan.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashga doir qonunchilik hujjatlarini rivojlanish tendensiyalarini shartli ravishda uch davrga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda (2004-2017-yillar) nodavlat oliy ta'lim faoliyati uchun litsenziya maxsus komissiya tomonidan qat'iy tartibda 5-yil muddatga berilgan. Ikkinchi bosqichda (2018-2025-yillar) litsenziyalash elektron shaklda amalga oshirilishi belgilandi hamda umumiy va maxsus litsenziya talab va shartlari belgilandi. Uchinchi bosqichda (2025-yil 1-iyundan keyingi davr) litsenziyalashda ikki bosqichli tizim joriy etildi. Dastlab litsenziyalash, keyin maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tish.

Nodavlat oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini litsenziyalashga doir qonunchilik hujjatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda mamlakatimizda ta'limni isloh qilish va rivojlantirish hal qiluvchi kuchga aylangan. Sifatli va uzliksiz ta'lim muhitini yaratish asosiy vazifa sifatida belgilanar ekan, unga qo'yiladigan talab va shartlar ham takomillashib boraveradi. Maqsad zamon talablariga javob beradigan va xalqaro standartlarga mos kadrlar yetishtirish tizimini joriy etishdir.

ADABIYOTLAR

1. Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi statistik ma'lumotlar platformasi <https://stat.edu.uz/>.
2. Setevoe izdanie Vedomosti (Vedomosti) gazetasi. <https://www.vedomosti.ru/society/articles/2025/>.
3. Byuro natsionalnoy statistiki Agentstva po strategicheskemu planirovaniyu i reformam Respubliki Kazaxstan. <https://stat.gov.kz/ru/industries/social-statistics/stat-edu-science-inno/publications/196856/>.
4. Informatsionnaya sistema upravleniya obrazovaniem otkrytye dannye. <https://open.edu.gov.kg/index.php>.
5. Lazgro Education https://lazgroeducation.com/usa_university_types.
6. Lex.uz: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/1129603>.
7. Lex.uz: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/32924#1069001>.
8. Lex.uz: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-1129603>.
9. Lex.uz: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/3343077>.
10. Lex.uz: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/3601227>.
11. Lex.uz: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-5870213>.
12. Lex.uz: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/7513052>.

Annotatsiya. Maqolada nodavlat oliy ta'lim faoliyatini litsenziyalash sohasidagi qonunchilik hujjatlarining rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va AQShdagi nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining statistik ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari uchun amalda bo'lgan ustav fondi, depozit zaxirasi, moddiy-texnik baza, axborot-resurs markazi, hudud va binolarga qo'yiladigan litsenziya talab va shartlari keltirilgan.

Kalit soʻzlar: nodavlat oliy taʼlim, litsenziyalash, taʼlim qonunchiligi, maxsus davlat akkreditatsiyasi.

Аннотация. В статье освещены тенденции развития законодательства в сфере лицензирования деятельности негосударственных высших учебных заведений. Проведён сравнительный анализ статистических показателей негосударственных организаций высшего образования Узбекистана, России, Казахстана, Кыргызстана и США. Кроме того, в статье приведены действующие лицензионные требования и условия для негосударственных организаций высшего образования в отношении уставного фонда, депозитного резерва, материально-технической базы, информационно-ресурсного центра, территории и зданий.

Ключевые слова: негосударственное высшее образование, лицензирование, образовательное законодательство, специальная государственная аккредитация.

Annotation. The article highlights the development trends of legislation in the field of licensing the activities of non-state higher education institutions. A comparative analysis of statistical indicators of non-state higher education organizations in Uzbekistan, Russia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, and the USA is carried out. Additionally, the article presents the current licensing requirements and conditions for non-state higher education organizations regarding the charter fund, deposit reserve, material and technical base, information resource center, premises, and buildings.

Key words: non-state higher education, licensing, educational legislation, special state accreditation.
